# 17

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-aprel va 1-may kunlari Surxondaryo viloyatiga qilgan tashrifi chog’ida berilgan topshiriqlari yuzasidan Termiz shahrining “Bog’i shamol” MFY Farovon massividan 1540 o’rinli umumiy o’rta ta’lim maktabi qurilishi belgilangan edi. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida ana shu vazifa o’z ijrosini topdi. Shahrimizda yangi, zamonaviy 26-umumiy o’rta ta’lim maktabi qurib bitkazilib, Surxondaryo viloyati hokimi To’ra Bobolov ishtirokidagi tantanali tadbirda foydalanishga topshirildi.